
Shaxsni haqorat qilganlik uchun javobgarlik qanday?

Haqorat qilganlik – shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitganlik yoki beodoblik bilan qasddan tahqirlaganlik uchun qonunchilikda ma’muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Xususan, Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksda haqorat qilgan shaxsga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravadan (4 460 000 so’mdan 8 920 000 so’mgacha) 40 baravarigacha miqdorda jarima solinishi belgilangan.

Agar ushbu huquqbuzarlik bir yil ichida takroran sodir etilsa huquqbuzarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Jinoyat kodeksiga asosan haqorat qilgan shaxsga:

44 mln 600 ming so’mgacha miqdorda jarima;

240 soatgacha majburiy jamoat ishlari;

1 yilgacha axloq tuzatish ishlari jazosi berilishi mumkin.

Haqorat qilish nashr qilish, boshqacha usulda ko’paytirilgan matnda yoki OAV orqali amalga oshirilsa ushbu harakat to’g’ridan-to’g’ri jinoyat hisoblanadi va aybdor:

44 mln 600 ming so’mdan 89 mln 200 ming so’mgacha jarima;

240 soatdan 300 soatgacha majburiy jamoat ishlari;

1 yildan 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi mumkin.

Agarda haqorat qilish:

- jabrlanuvchini o’z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog’liq holda;
- xavfli retsidivist tomonidan;
- tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan bo’lsa:

89 mln 200 ming so’mdan 133 mln 800 ming so’mgacha miqdorda jarima;

2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari;

1 yilgacha ozodlikni cheklash;

1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin.

Q.Abdullayev

Jinoyat ishlari bo’yicha

Quva tumani sudining sudyasi

2021-12-29 21:53:28